

OILADA BOLALARNI MEHNATSEVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТРУДОВОГО ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ

METHODOLOGICAL BASES OF LABOR EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY

**Nurmatova Gulizebo Nurali qizi
5-DMTT**

Annatatsiya

Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida bolalarda mehnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Buni shunday olib borish kerakki, bola o‘z mehnatining natijasini kura bilsin, shundagina bola o‘z imkoniyatidan mamnun bo‘ladi. Haqiqatan ham hozirgi kunda bolaga mehnatsevarlikni o‘rgatishda oilada iqtisodiy mehnat aloqalarining qanchalik muhim ekanligini bugungi hayot sharoiti ham ko‘rsatib turibdi.

Аннотация

В основе экономического воспитания в семье лежит формирование у детей трудолюбия. Делать это нужно так, чтобы ребенок мог видеть результаты своего труда, чтобы ребенок был доволен своими возможностями. Действительно, современные условия жизни показывают значение хозяйственно-трудовых отношений в семье в обучении ребенка труду.

Annotation

The basis of economic education in the family is the formation of industriousness in children. This should be done in such a way that the child can see the results of his work, so that the child is satisfied with his abilities. Indeed, modern living conditions show

the importance of economic and labor relations in the family in teaching a child to work.

Kalit so'zlar: iqtisodiy tarbiya, mehnat tarbiyasi, baxtli turmush, jahon madaiyati.

Ключевые слова: экономическое образование, трудовое воспитание, счастливая жизнь, мировая культура.

Key words: economic education, labor education, happy life, world culture.

Bolalarни мэнатсеварлик руҳидаги тарбиялаш ва уларни ўтук баркамол ма‘сулитетли шахс қилиб yetishtirish borasida, jahon madaiyati uchun katta hissa qo‘shgan va o‘zlarining boy ma‘naviy merosini qoldirgan buyuk allomalarimiz Abu Nasr Farobi, Ibn Sino, Yusuf Xos Xodib, Mahmud Qashg‘ariy, Jomiy kabi mutafakkirlarimiz hamda g‘arb pedagoglari Pestalossi, Yan Amos Komenskiy, Konsantantin Diit revich Ushinskiylar o‘zlarining qimmatli fikrlarini bayon etganlar.

Mehnatsevarlik tarbiyasiga uslubiy yondoshish mutafakkirlarimiz tomonidan muntazam boyitib kelingan. Chunonchi, Abu Nasr Farobiy insonga yashash uchun juda ko‘p narsalar kerakligini e‘tirof etib, bu o‘rinda mehnatsevarlikni alohida ko‘rsatib o‘tadi.

Ulug‘ mutafakkirimiz shunday deydi: —Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida bolalarda mehnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Buni shunday olib borish kerakki, bola o‘z mehnatining natijasini kura bilsin, shundagina bola o‘z imkoniyatidan mamnun bo‘ladi. Haqiqatan ham hozirgi kunda bolaga mehnatsevarlikni o‘rgatishda oilada iqtisodiy mehnat aloqalarining qanchalik muhim ekanligini bugungi hayot sharoiti ham ko‘rsatib turibdi.

Yana bir mutafakkirimiz Abu Ali Ibn Sino oila muhitida bola tarbiyasi haqida shunday fikrlarini bayon qilganlar. —Agar sen ota bo‘lsang go‘zal xulq, fazilat sohibi bo‘lishga intil, bolang

tarbiyasida eng avvalo mehnat tarbiyasiga e‘tibor ber. Chunki mehnat tarbiyasi aqliy, ahloqiy va jismoniy tarbiyaning asosi bo‘lib xizmat qilajak der ekan. Ibn Sino o‘zining pedagogik qarashlarida bolani mehnatsevarlik xislarini shakllantirishda oila muhitidagi tarbiyaga alohida e‘tibor beradi. Uning fikricha oila boshlig‘i bolalar tarbiyasi haqida amaliy va nazariy bilimga ega bo‘lishi kerak. Oil a boshlig‘ida bu sohada yetarli tajriba bo‘lmasa u oila a‘zosiga yaxshi tarbiya bera olmaydi. Yaxshi tarbiyani esa, oila farovonligining, baxtining asosi, zamini hisoblaydi.

Yana bir ulug‘ mutafakkir shoirimiz Yusuf Xos Xojib o‘zining qimmatli asari bo‘lmish —Qutadg‘u bilig (—Saodatga eltuvchi bilim) asarida bolalarni mehnatsevar qilib tarbiyalashda ota-onaning mavqyei to‘g‘risida bir qator fikr va qarashlarini aytadi. Ulug‘ shoirning aytishicha, ota —onalar nazoratida bo‘lgan bolaning ma‘suliyat hissi rivoj topadi, shu sababli ham bolalar tarbiyasida ota —onaning mavqyei alohida ahamiyatga egadir, ular tanlagan to‘g‘ri yo‘l farzandlarning kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhimdir U deydi:

—Bolaga otaning mehnati singgan bo‘lsa, so‘ng u bolaning xulq atvorida bilinadi. Ota bolani nazoratda tutsa u yaxshi, ezgu bo‘ladi. Otasi va onasining yuzi yorug‘ bo‘ladi.

XI asr Markaziy Osiyo madaniyati gullab yashnashiga hissa qo‘shgan alloma Mahmud Qoshg‘ariy bugungi kunda hammamizga tanish bo‘lgan ma‘lumu mashhur asari —Devoni lug‘atit turk (—Turkiy asar devoni) asarida mehnatsevarlik to‘g‘risida kundagi fikrlarini bildirib o‘tkanlari. —Emgak ekinda qolmas – ya‘ni mehnat tush ketmaydi deb ixlos bilan qilingan mehnatning zos ketmasligini uqtiradi. Mahmud Qoshg‘ariy kishilarni birlashib, o‘zaro kengashib mehnat qilishga chorlaydi.

Yana bir alloma mir Alisher Navoiy bobomizning hamfikr ijodkor do‘srtlari bo‘lgan Abdurahmon Jomiy nasriy yo‘lda yozilgan —Bahoraiston asarida mehnatsevarlik xususidagi qarashlarini bayon qiladi. U mehnatni insonga baxtli turmush baxsh etuvchi

vosita hisoblaydi, har bir inson o‘z halol mehnati bilangina bahtli turmushga erishishini aytadi.


O‘z mehnating bo‘lsin doim yo‘ldoshning

O‘zga minnatidan og‘ritma boshing diya shoir har bir yoshdagi kishini mehnatsevarlikka chiqaradi.

Ulug‘ alloma mir Alisher Navoiy esa ijod etgan barcha asarlarida insonparvarlik, aqliy va mehnat tarbiyasi haqida o‘z g‘oyalarini ilgari suradi. U deydiki insonning insonligi uning nasl nasabida emas balki tarbiyalı va hayoli bo‘lishidadir.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy —Bo‘ston asarida oilada bolalar tarbiyasi haqida shunday fikrlarni aytadiki, uning fikriga oila bolaning baxti kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir. U ma‘suliyatli tarbiyachidir ota o‘z bolalarini tarbiyalashi, o‘qitishi, mehnatsevarlikni tarkib toptirib hunarga o‘rgatishi kerak.

Sa‘diy o‘z pedagogik qarashlarida tarbiyani uch asosiy ko‘rinishga, aqliy nafosat va mehnat tarbiyasiga bo‘ladi.



Adib bolalarni tarbiyalash vazifasini ularning ota –onalariga, ayniqsa, otaga yuklaydi, ya‘ni oilaviy tarbiyaga katta e‘tibor beradi, ota –onalarga murojaat qiladi. U yozadi:

O‘tay yaxshi nom bilan desang agar

Sen o‘g‘lingga o‘rgatgil ilmu hunar

Agar sendan qonunga ham bo‘lsa zor

O‘z o‘g‘lingni qoldirmagin behunar.

Biz sharq va G‘arb mutafakkirlarining farzand, bolalar tarbiyasi va bunda oianing tutgan o‘rni va uni mustahkamlash to‘g‘risidagi fikr mulohazalari, ota –onalarning qanday tarbiya olib borishlari kerakligi to‘g‘risidagi o‘gitlarini namuna sifatida keltirdik.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risidagi Qonun.2019 yil
2. O.U.Xasanboyeva. —Pedagogika tarixi Toshkent -2000y
3. B.Zunnunov, B.To‘xtayev, X.Ma‘sudov —Pedagogika tarixi Toshkent —Sharq 2002y
4. B.Umurzoqov, M.Rahimov —Istiqlol va mehnat mentaliteti Farg‘ona 2003y
5. F.Turg‘unboyev, —Mehnat munosabatlari va metalitet. Toshkent —O‘zbekiston 2005y